

ORIENTAL JOURNAL OF ACADEMIC AND MULTIDISCIPLINARY RESEARCH




Volume 2 Issue 1
January
2024

ISSN 3030-3079

www.inno-world.uz

+998 94 5668868



TASVIRIY SAN'AT MOHIYATI, TURLARI VA JANLARI

Azizova Xilola Egamberganovna
Urganch davlat pedagogika instituti
Stajyor o'qituvchisi

ARTICLE INFO

Received: 30th January 2024
Accepted: 30th January 2024
Online: 30th January 2024

KALIT SO'ZLAR

tasviriy san'at, grafika, rangtasvir,
dasgohli rangtasvir, monumental
rangtasvir, freskalar, mozaika,
vitraj, miniatyura,
haykaltaroshlik.

ANNOTATSIYA

Maqolada tasviriy san'atning hozirgi kundagi tutgan o'rni va tasviriy san'at tarixi, tur va janrlari haqida malumot berilgan. Tasviriy san'at turlari bu biz biladigan qalamtasvir, rangtasvir, haykaltaroshlik va boshqa san'atlardan badiiy adabiyot, musiqa, tasviriy san'at, teatir, kino, me'morchilik, arxitektura va amaliy bezak kabi boshqa san'ati turlari ham mavjudligi haqida yozilgan.

Yurtboshimiz tashabbusi bilan barcha sohada hayotga tatbiq etilayotgan istiqbolli loihalar, joylarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı bunyodkorlik ishlari xalqimizning nafaqat turmush tarzini, balki dunyoqarashini ham tubdan o'zgartirmoqda. Bunday ezgu jarayon va san'at ahliga berilayotgan ahamiyat va e'tibor ijod ahliga ko'rsatilayotgan yuksak e'tibor misolida ko'rishimiz mumkin.

Tasviriy san'at juda qadim zamonlarda, mehnat jarayonining taraqqiyoti natijasida paydo bo'ldi, mehnat jarayonida inson tafakkuri kamol topdi, go'zallik hissi ortdi, voq likdagi go'zallik qulaylik va foydalilik tushunchalari kengaydi. Sinfıy jamiyat vujudga kelishi bilan esa ijtimoiy taraqqiyotda katta o'zgarishlar sodir bo'ldi aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajralib chıqa boshladi, Bu esa fan va san'at rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Professional san'at va san'atkorlar shu davrda paydo bo'ldi. San'at esa o'zining o'ziga xos xususiyatini, sinfiyligini namoyon etib, hukmron sinfnıng ideologiyasini targ'ib etuvchi kuchli g'oyaviy qurolga aylandi. Lekin shunga qaramay, omma orasidan yetishib chiqqan iste'dodli ijodkorlar mehnatkash xalq ommasining orzu-istaklarini, ularning go'zallik va xudbinlik oliyjanoblik va insonparvarlik haqidagi tushunchalarini ifoda etuvchi asarlar yaratdilar. Xalqning turmushi, xulq va odatlari, yutuq va mag'lubiyatlari ularning asarlarida o'z ifodasini topdi. Har bir davrda mavjud bo'lgan ana shunday san'at hayot go'zalliklarini tasvirlab, odamlarda yuksak xislat va fazilatlarini kamol toptirdi, ularni tenglik ozodlik birodarlik yorqin kelajakka intilishga da'vat etdi.

Tasviriy san'at tushunchasi keng ma'noga ega. XIX asrgacha me'morchilik haykaltaroshlik va rangtasvir san'atining turlari bolib hisoblangan. Natyumorı XIX asrning oxirlarida grafik tasviriy san'atning eng muhim va aniq turlaridan biriga

aylandi. So'ngi 20 yil ichida san'atning dizayin turi ham o'z o'rnini topdi. Tasviriy san'atning turlari bir-biriga judaxam yaqin va ularning bir qator o'xshashliklari bor.

Grafika "grafika"- lotincha so'z bo'lib, "yozaman, rasm ishlayman" degan ma'noni bildiradi va tasviriy san'atning turlaridan biri hisoblanadi. Grafikaning turlaridan biri gravyuradir. Gravyura frantsuzcha so'z bo'lib, "kesish" ma'nosini bildiradi. Bunda rasmlar qattiq materiallarga chizish va kesish orqali bajariladi. Bu rasmlar avvalo metall, yog'och, linoleum, tosh kabi materiallarda ishlanib, keyin undan qog'ozga ko'p tirajda ko'chiriladi. Metallda tayyorlanadigan gravyurani ofort, yog'ochdakisini ksilografiya, lenoliumdakisini linogravyura, tosh orqali tayyorlanadiganini esa litografiya deb yuritiladi. Grafika asarlarining qo'llanish sohalari beqiyos kengdir. Xususan, estamp, kitob illyustratsiyalari, plakat, pochta markalari, gazeta-jurnal bezaklari, karikaturalar, etiketka va upakovkalar, teatr va kino afishalari, yo'l va tovar belgilari, tashkilot va muassasalarning ish blankalari shular jumlasidandir.

Grafikaning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri bu uning katta o'lchovda bo'lmasligi va buyoqlar sonining chegaralanganligi hisoblanadi. Shuning uchun ham grafika asarlarida faqat chiziq yoki to'q dog' ishtirok etadi. Ba'zan grafik tasvirlar rangli bo'ladi.

Rangtasvir deb tekis yuzada turli rang va materiallar yordamida bajariladigan tasvirga aytiladi. Unga asosan bo'yoqlar - moyli bo'yoq, akvarel, guash, tempera shuningdek, rangli qalamlar, ko'mir, qalam, pastel, sous, sangina kabi badiiy materiallar bilan ishlash xarakterlidir. Rangtasvir asarlari qog'oz, mato, karton, devor, oyna, yog'och kabi tekis yuzalarga ishlanadi. Rangtasvir asosini rasm tashkil etadi. Har qandy rangtasvir ishda avval uni rasmi ishlab olinadi. Unda kompozitsiya, yorug'soya, rang asosiy o'rinni egallaydi. Rangtasvir asarlari bajarilishi texnikasi jihatdan turlituman bo'ladi. Ular moybo'yoq, tempera, freska, mozayka, vitraj, akvarel, guash, pastel hisoblanadilar.

Rangtasvirning quyidagi turlari mavjud:

1. Dastgohli rangtasvir.
2. Monumental rangtasvir.
3. Miniatyura rangtasviri.
4. Dekorativ rangtasvir.
5. Teatrdekorativ rangtasviri.

Dastgohli rangtasvir deganda rassomlarning maxsus asbob-dastgoh (molbert) yordamida ishlaydigan suvratlari tushuniladi. Monumental rangtasvir atamasi monumental (maxobatli), ya'ni katta o'lchovdagi, rangtasvir ma'nosini anglatadi va u ko'pincha binolarning ichki va tashqi devorlariga tempera bo'yoqlari bilan ishlanadi.

Haykaltaroshlik-haykaltaroshlik rangtasvir kabi hayotiy voqea va xodisalarni turli uslub va tasvirlash texnikasi va materiallar yordamida ifodalaydi. Haykaltaroshlikda tosh, metal, gips, yog'och, vosk (mo'm), sim kabi materiallar keng qo'llaniladi. Haykaltaroshlik asarlari kesish, yopishtirish, ulash va o'yish, quyish orqali bajariladi. Haykalarni ikki turi mavjud bo'lib, birinchisi to'liq

yumaloq haykallar ikkinchisi relefli haykallardir. Yumaloq haykallarni har tomondan ko'rish mumkin bo'lsa, relefni faqat bir tomondan, ya'ni oldindan ko'riladi. Releflar tekislik ustiga ishlanib, qisman bo'rtib chiqqan bo'ladi.

Relefni ikki xili bo'ladi:

1. Barelefdan tasvirning qalinligi yarmidan kam bo'rtib chiqqan bo'ladi.
2. Gorelefdan esa tasvir uning qalinligining yarmidan ko'prog'i bo'rtib chiqqan bo'ladi.

Haykaltaroshlikda ma'lum miqdorda rang ham qo'llaniladi. So'nggi yillarda mo'm (vosk) haykallar ishlay boshlandi. Bunda rangli mo'mlardan to'liq foydalanilmoqda. Haykallar shakl va mazmun jihatdan realistik, dekorativ va abstrakt yo'nalishlarda bo'ladi.

Realistik haykallarda odam, xayvon va boshqalar haqiqiy ko'rinishda tasvirlansa, dekorativ haykallarda ular stilizatsiyalashgan, ya'ni shakl, o'lchov, proporsiya va boshqa jihatdan ma'lum miqdorda o'zgartirilib ifodalanadi. Abstrakt haykallarda tasrlanuvchilar shakl, mazmun, o'lchov va boshqa jihatlardan movxumlashtirilgan holda tasvirlanadi.

Haykaltaroshlar o'z faoliyatlarida quyidagi asboblardan foydalanadilar: maxsus dastgoh, bolg'a, stek, bolta, tsirkul, iskana v.b. Iskanalarning to'g'ri burchakli, uchburchakli, trapetsiya burchakli, yoysimon chuqur shakl beruvchi turlari bo'ladi. Shuningdek, haykal loyi ustidagi ortitsia qismini tortib olish uchun qattiq simdan tayyorlangan doira, ellips, uchburchak, to'rtburchak, trapetsiya shaklidagi sidirg'ichlar qo'llaniladi. Shuni ham qayd qilish lozimki, iskanalar turli o'lchovda, tuzilishda va shaklda bo'ladilar. Haykaltaroshlikning dastgohli, monumental, yodgorlik (me'morial), dekorativ va monumental-dekorativ turlari mavjud.

Dastgohli haykaltaroshlik iborasi haykallarni maxsus asbob (dastgoh)ga o'rnatib ishlanganligidan kelib chiqqan Natyurmort Bunday haykallar mustaqil amaliy ahamiyat kasb, ular jamoat binolari va uy-joylarning ichki qismi, shuningdek, istiroxat bog'lari, muzey va ko'rgazma zallari uchun mo'ljallab yaratiladi. Dastgohli haykallarning xarakterli xususiyatlaridan yana biri, ularni tasvirlanayotgan narsalarni haqiqiy o'lchovida yoki undan kichik bo'lishligidir. Dastgohli haykaltaroshlik asarlari yaqindan ko'rishga mo'ljallangan bo'lib, unda portret asosiy o'rnini egallaydi. Kishilar obrazni kalla qismini o'zi tasvirlanganda uni byust deyiladi. Agarda uni bo'yi-basti bilan tasvirlansa uni figurali portret deb yuritiladi. Shuningdek, yarim figurali portretlar ham bo'ladi.

O'zbekiston xalq rassomi akademik M.Nabiyev buyuk siymolar obrazini o'ziga xos talqin eta oigan iste'dodli mo'yqalam sohibidir.

Natyurmort - fransuzcha «jonsiz tabiat» degan ma'noni beradi. Odamlar hayotida ishlatiladigan, ko'pincha turmushda zarur boigan turli buyumlar, mehnat qurollari, sabzavot va mevalar, gullar, parranda va mayda hayvonlar tasvirlanadi, ya'ni natyurmort san'atida insonning maishiy hayoti aks ettiriladi. Natyurmort XVI asrning oxirlariga kelib, mustaqil janr sifatida shakllandi. XVII asrga kelib, Gollandiya va Flandiya, XVIII asrda esa Fransiya tasviriy san'atida keng tarqaldi. Ma'lumki, har bir rassom tasviriy san'at sirlarini o'rganishni natyurmort ishlashdan boshlaydi. Natyurmort asarlarini diqqat bilan o'rgangan kishi ularda ma'lum davr

ijtimoiy hayotining aksini ko'radi va shu davrda yashagan odamlarning turmush tarzi haqida tasavvurga ega bo'ladi.

Natyumortda tasvirlanayotgan (mustaqil aks ettirilayotgan yoki kartinalarda asar mazmunini boyitadigan va to'ldiradigan) buyumlar o'z egasining fe'l-atvorini, qiziqishini yoritishga yoki buyumlarning shakli, rangi, fakturasi, tuzilishidagi ritmik, dinamik va statik holatlarini ko'rsatishga qaratilgan Natyumort

Natyumort Qad. Misrda devorga ishlangan freskalarda, ellinizm davri mozaikalarida, Xitoyda ("qush va gullar", 7-asrdan) kompozitsiya bo'lagi sifatida ma'lum bo'lgan; Yevropada 16-asr oxiri — 17-asr boshlaridan mustaqil ahamiyatga ega bo'ldi, keng tarqala boshladi, eng taraqqiy etgan davri 17-asrga to'g'ri keladi, 18-asrdan "Natyumort" atamasi qo'llanila boshladi. Italyan rassomi M. Kapaeajo va uning izdoshlari (karavajizm) Natyumort ning keng tarqalishida muhim rol o'ynadi: gul va mevalar, dengiz in'omi — baliq, qisqichbaqalar sevimli mavzuga aylandi. Gollandiya (V.K.Xeda, P.Klas va boshqalar), Flandriya (F.Sneyders, Ya. Feyt va boshqalar), Ispaniya (F.Surbaran va boshqalar), Fransiya (J.B.Sharden va boshqalar) va boshqalarda yuksak taraqqiyotga erishdi. P. Sezann, A. Matiss, J. Brak va boshqa Natyumort ga ko'proq e'tiborni qaratganlar. 20-asrda Natyumort realistik an'alarini Meksikada D. Rivera, D. Sikeyros, Italiyada R. Guttuzolar davom ettirdi. Rossiyada Natyumort 18-asrda paydo buldi, kuzni aldaydigan "xuddi o'ziga o'xshash" (aldamchi) rasmlar ishlashdan (G.N.Teplov, P.G.Bogomolov va boshqalar) shakllanib bor-di, 19-asr 1-yarmida haqqoniylikka, borliqni o'zidan go'zallik topishga harakat qilindi (M.A.Vrubel, K.Korovin, I.E.Grabar va boshqalar), shakl, faktura va bezakdorlik borasidagi yutuk, larga erishildi (P. Kuznetsov, P.P.Konchalovskiy, A.Kuprin va boshqalar).

O'zbekiston tasviriy san'atida Natyumort unsurlari qadimgi davr san'atida (Mas, Afrosiyob devoriy rasmlarida — vazadagi mevalar), miniatyura san'atida (Mas, Kamoliddin Behzodning Shayboniyxon portretida tasvirlangan buyumlar — siyohdon, qamchi) uchraydi. Natyumort ning haqiqiy shakllanishi va rivojlanishi 20-asrning 30—50-yillariga to'g'ri keladi. Ayni shu davrda rassomlarning ijodida Natyumort ning dastlabki namunalari paydo bo'ddi: L.Nasriddinov ("Nonli Natyumort "), Sh. Hasanova ("Xitoy chinnisi bilan ishlangan Natyumort ") va boshqa; M. Kurzin, V. Rojdestvenskiy, V.Ufimsev, N.Kashina, 3. Kovalevskaya, O. Tatevosyan, S. Abdullayev, V. Fadeyev, Yu. Yelizarov va boshqalar Natyumort yaratdilar. 60—80 yillarda L. Salimjonova, Yu. Taldikin, R. Choriyev, V. Burmakin, Ye. Melnikovlar ijodida Natyumort keng o'rin tutadi. Rassomlar R. Ahmedov, A. Ikrom-jonov, M. Nuriddinov va boshqalar Natyumortda samarali ijod qilib, Natyumortning taraqqiyotini ta'minladilar. Natyurt chizishda chizayotgan buyumning joylashisiga alohida e'tibor beriladi. Natyurmor chizishda inson qiyofasi ham tasvirlansa hato hisoblanmaydi Natyurmor ikki yoki undan ortiq buyum yordamida chiziladi. Hajmi katta buyumlar orqada, hajmi kichik buyumlar oldinda joylashgan holda chiziladi. Buyumlarni bir biriga tegib turgan xolda bo'lishi lozim. Natyurmort chizishning bir necha holatlarda chizish mumkin.

Xotirada natyurmort ishlash. Yani bunda kerakli naturalar tanlanib olinadi va diqqat bilan kuzatiladi undan so'ng ustiga biron masonik yopib qo'yib keyin Natura

kompozitsiyasini chiziladi

Manzara janri - Go'zal ona tabiatning turli ko'rinishlarini san'atda aks mahorat bilan aks ettirganlar. Yevropada manzara XVI-XVII asrlarda taraqqiy etdi. G'.Abdurahmonov. Oydin kecha. XIX asming ikkinchi yarmidagi rus realistik san'atida manzarajanri beqiyos o'sdi. Bu janrning novatorlaridan biri A.K.Savrasovdir. Tog', o'rmon, dengiz, shahar va qishloq manzaralarining tasvirlanishi manzara janriga tegishlidir. Manzaraning mohir ustalari Klod Loren, LShishkin, LLevitan, O'. Tansiqboyev, N.Karaxan, G'.Abdurahmonov va boshqa mashhur rassomlar ijodini bu borada misol keltirish mumkin.

Tarixiy janrda - uzoq o'tmishda bo'lib o'tgan voqea-hodisalar, tarixiy shaxslar, xalqlarning turmush madaniyati tasvirlanadi. U Uyg'onish davrida vujudga kelib, XIX asr san'atida keng rivojlangan Natyumort Rus san'atida bu janrning ko'zga ko'ringan namoyandalaridan biri V.L.Surikov edi. U qator ajoyib « O'qchilar qatl etilgan tong» kabi asarlarni yaratdi. Rassomning tarixiy janrda ilgari surgan asosiy maqsadi xalqning o'tmishda boshidan kechirganlarini ko'rsatish edi. Tarixiy mavzudagi asarlarga taniqli musavvir M.Nabiyevning «Eski maktab» asari misol bo'la oladi.

Batal janr - «batal» fransuzcha so'z bo'lib, «jang», «urush» ma'nosini bildiradi. Tarixiy urush voqealarini, harbiy yurish manzaralarini aks ettiruvchi janr. Batal janr mavzusi jihatidan tarixiy janrga yaqin turadi. Jang bilan bevosita bog'liq bo'lgan tarixiy voqealarni ham ko'rsatadi. Musavvirlardan M.Grekov, G.Savitskiy, A.Deyneka, R.Rizamuhamedov (Muqanna qo'zg'oloni), T.Sodiqov (To'marisning qasosi), M.Nabiyevlarning (Spitamen qo'zg'oloni) asari bunga yorqin dalil bo'la oladi.

Maishiy janr - tasviriy san'atda kishilarning kundalik maishiy hayotini, turli voqealarni o'zida mujassamlashtiradi. Rangtasvirda aks etuvchi maishiy janr ilk bor XVII asrda ijod etgan Golland rassomlari - Piter de Xox, Ostade, Sten, Terborx, Vermeef kabilar ijodida namoyon bo'ladi. Rus realist rassomlaridan P.Fedotov, V.Perov, V.Maksimov, K.Savitskiy, I.Repin kabilar maishiy janrning rivojlanishiga ham katta hissa qo'shdilar. O'zbek rassomlaridan R.Ahmedov, M.Saidov, Z.Inog'omov, R.Choriyev, F.Abdurahmonovlar ham ushbu janrda barakali ijod etmoqdalar. Z.Inog'omov. Qiyom payti.

Animalistik Janr o'zgacha tasviriy san'at turidir. U lotincha «anima» - hayvonot olami degan ma'noni bildiradi. Animalist - rassom hayvonot dunyosiga zo'r qiziqish, sevgi va mahorat bilan yondashadi. Hayvonot dunyosi ibtidoiy odamlar hayotida katta ahamiyatga ega bo'lgan Natyumort o'sha davrda ular g'orlarning devorlarida kiyik, qo'tos, mamontlarning suratlarini chizganlar. Qadimgi Yaponiyada va Xitoyda hayvonlarning tasvirlari dekorativ naqshlar tuzishda hamda monumental kompozitsiyalar yaratishda asosiy hisoblangan Natyumort XVII asrga kelib, hayvonot olami anatomiyasini buyuk musavvir Leonardo da Vinchi va A. Dyurerlar ishlab chiqdilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.Xasanov «Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi» WzR FA «Fan» nashri. 2004 yil.
2. R.Xasanov. «Tasviriy san'at asoslari» 2009 yil.
3. R.Xasanov. «Tasviriy san'atdan sinfdan tashqari ishlar». «Ishonch nashr savdo» MChJ nashri. 2017 yil